

**YERLARNING MELIORATIV  
HOLATINI YAXSHILASH TIZIMINI  
TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH  
CHORA-TADBIRLARI TO`G`RISIDA**

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTINING  
FARMONI  
29.10.2007 y.  
N PF-3932**

hujjatning rus tilidagi  
matniga qarang

Mazkur Farmonga quyidagilarga muvofiq o`zgartirishlar kiritilgan:

O`zR Prezidentining 05.02.2008 y. PF-3963-son Farmoni,  
O`zR Prezidentining 27.02.2009 y. PF-4087-son Farmoni,  
O`zR Prezidentining 02.02.2011 y. PF-4273-son Farmoni,  
O`zR Prezidentining 19.04.2013 y. PF-4533-son Farmoni

Keyingi yillarda qishloq xo`jaligini isloh qilish, fermer xo`jaliklarini rivojlantirish, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini barpo etish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar qishloqda haqiqiy mulkdorlar sinfini shakllantirish, qishloq xo`jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni hamda qishloq aholisining daromadlarini ko`paytirish imkonini berdi.

Shu bilan birga, sug`oriladigan yerlarning hozirgi meliorativ holati qishloq xo`jalik ekinlari hosildorligini yanada o`stirishga va qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining daromadlarini oshirishga to`g`anoq bo`lmoqda. Melioratsiya sohasidagi tadbirlarning loyihalarini, shuningdek ularni moliyalashtirishning aniq manbalarini shakllantirishda tizimli ravishda kompleks yondoshilmayotganligi, suv xo`jaligi tuzilmalari va suvdan foydalanuvchilar uyushmalarining sust ishlashi keyingi yillarda melioratsiya ishlari hajmlarining kamayishiga, sizot suvlarning darajasi ko`tarilishiga va minerallashuvi oshib ketishiga olib keldi.

Buning oqibatida hozirgi vaqtda sug`oriladigan yerlarning yarmidan ko`prog`ini turli darajada sho`r bosgan, ayni vaqtda fermer xo`jaliklariga qarashli sug`oriladigan yerlarning 16 foizidan ortig`i qoniqarsiz holatdadir.

Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishini yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo`jaligi ekinlari hosildorligini ko`paytirish, shuningdek melioratsiya ishlarini tashkil qilish va moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida:

1. Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash 2008-2012-yillar davrida qishloq xo`jaligini rivojlantirishning quyidagilarni nazarda tutuvchi eng muhim ustuvor vazifalari etib belgilansin:

melioratsiya ishlarining buyurtmachilari va ijrochilari o`rtasida vazifalarni qat`iy taqsimlash hamda ularning javobgarligini oshirish asosida sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishga yondoshuvlarni tubdan o`zgartirish;

sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo`yicha ishlarni moliyalashtirishning ishonchli mexanizmini ta`minlash;

melioratsiya shohobchalarining samarali ishlashini, drenaj va oqava suvlarning kollektor-drenaj tarmog`i orqali normativga muvofiq chiqarilishini ta`minlaydigan ushbu shoxobchalarni saqlash mexanizmini sifat jihatidan takomillashtirish;

lizing operatsiyalarini keng joriy etish yo`li bilan suv xo`jaligi tashkilotlari va suv iste`molchilari uyushmalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, melioratsiya texnikasi saroyini yangilash. (O`zR Prezidentining 02.02.2011 y. PF-4273-son Farmoni tahriridagi xatboshi)

2. O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, Moliya vazirligi, O`zbekiston Fermer xo`jaliklari uyushmasining O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini tashkil etish to`g`risidagi taklifi qabul qilinsin.

Vazirlar Mahkamasi o`n kun muddatda O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi tuzilmasini, uning Kengashi tarkibini, shuningdek uning ijro etuvchi organi - Jamg`armani boshqarish Departamenti tuzilmasini tasdiqlasin.

***Qarang: Prezidentning\* 2007 yil 31 oktyabrdagi PQ-718-son Qarori bilan tasdiqlangan "O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini boshqarish departamenti tuzilmasi", "Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi Kengashining tarkibi"***

Quyidagilar mazkur Jamg`armaning asosiy vazifalari deb hisoblansin:

byudjet va byudjetdan tashqari manbalar hisobidan melioratsiya ishlarini o`tkazish uchun mo`ljallangan mablag`larni to`la hajmda Jamg`arma hisobvarag`ida jamlash;

O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari hamda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan birgalikda sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashning uzoq muddatli va o`rta muddatli Davlat dasturlarini ishlab chiqish;

tasdiqlangan dasturlarga muvofiq melioratsiya ishlarini, magistral (viloyatlararo), tumanlararo va xo`jaliklararo kollektor-drenaj tarmoqlarini mukammal ta'mirlash va tiklash maqsadida joriy ta'mirlash ishlarini tashkil qilish hamda tizimli asosda aniq, maqsadli moliyalashtirish;

yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hisobiga ularning unumdorligini oshirish borasidagi ishlarni moliyalashtirish yo`li bilan qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga davlat madadini ko`rsatish;

melioratsiya texnikasini, jumladan, lizing shartlari asosida sotib olish uchun qaytarib berish asosida mablag`lar ajratish yo`li bilan suv xo`jaligi tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Jamg`armaning ajratib berilgan moliyaviy mablag`laridan maqsadli, aniq va samarali foydalanilishi ustidan doimiy asosda qattiq nazoratni amalga oshirib borish.

3. Quyidagilar Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasini shakllantirishning asosiy manbalari etib belgilansin:

qishloq xo`jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan to`lanadigan yagona yer solig`i bo`yicha tushadigan mablag`larga teng bo`lgan Davlat byudjetiga mablag`lari; (O`zR Prezidentining 05.02.2008 y. PF-3963-son Farmoni tahriridagi xatboshi) (Oldingi tahririga qarang)

maqsadli byudjet mablag`lari;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklarning imtiyozli kreditlari;

mahalliy va xorijiy grantlar;

O`zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag` manbalari va daromadlar.

4. Belgilansinki, Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi mablag`laridan faqat quyidagi maqsadlarga:

sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlari doirasida magistral (viloyatlararo), tumanlararo, xo`jaliklararo ochiq kollektorlar va ulardagi inshootlarni, yopiq gorizontaal drenaj tarmoqlarini, vertikal drenaj quduqlarini, meliorativ nasos stansiyalar hamda kuzatuv tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tozalash; (O`zR Prezidentining 19.04.2013 y. PF-4533-son Farmoni tahriridagi xatboshi) (Oldingi tahririga qarang)

ixtisoslashtirilgan loyiha tashkilotlari tomonidan sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturiga kiritiladigan loyihalarni amalga oshirish bilan bog`liq bo`lgan loyiha-qidiruv hujjatlarini ishlab chiqishga;

ixtisoslashtirilgan qurilish va ekspluatatsiya tashkilotlari, suv iste'molchilari uyushmalarining melioratsiya texnikasi saroyini yangilashga mablag`ni qaytarib berish asosida, shu jumladan uzoq muddatli imtiyozli lizing shartlarida moliyalashtirish tadbirlariga; (O`zR Prezidentining 02.02.2011 y. PF-4273-son Farmoni tahriridagi xatboshi)

sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturlarida nazarda tutilgan boshqa ishlarga yo`naltirilgan holda foydalaniladi.

5. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, "Davarxitektqurilish" qo`mitasi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda 2007-yilning 15-noyabrigacha bo`lgan muddatda 2008-yilda birinchi navbatda rekonstruksiya qilinadigan va quriladigan ob`yektlarni belgilab bergan holda 2008–2012-yillarda sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturini ishlab chiqsin hamda tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritсин.

***Qarang: Prezidentning 2008-yil 19-martdagi "2008–2012-yillar davrida sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturi to`g`risida"gi PQ-817-son Qarori***

6. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2008-yilning 1- yanvarigacha ixtisoslashtirilgan qurilish va ekspluatatsiya tashkilotlari, suvdan foydalanuvchilar uyushmalarini melioratsiya texnikasi bilan ta`minlash bo`yicha ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasini tashkil etish bo`yicha aniq chora-tadbirlar ko`rsin.

***Qarang: VM 2007-yil 21-dekabrdagi "O`zmeliomashlizing" davlat lizing kompaniyasini tashkil etish to`g`risida"gi 266-son Qarori***

7. Quyidagilar:

Sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg`armasi - barcha turdagi soliqlar va boshqa majburiy to`lovlar to`lashdan, yagona ijtimoiy to`lov, shuningdek bojxona rasmiylashtiruv yig`imlari bundan mustasno; (O`zR Prezidentining 27.02.2009-y. PF-4087-son Farmoni tahriridagi xatboshi)

2008–2017-yillar mobaynida jamg`arma mablag`lari hisobidan sug`oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo`yicha pudrat va boshqa xizmat ko`rsatish tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ishlar va xizmatlar – qo`shilgan qiymat solig`i to`lashdan; (O`zR Prezidentining 19.04.2013 y. PF-4533-son Farmoni tahriridagi xatboshi)

tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan lizing kompaniyasi o`n yil muddatga - bo`shaydigan mablag`larni melioratsiya texnikasi yetkazib berilishini moliyalashtirish manbalarini to`ldirishga maqsadli yo`naltirilgan holda umumdavlat va mahalliy soliqlar to`lashdan, shuningdek sotib olinadigan melioratsiya texnikasi uchun bojxona to`lovlari (bojxona rasmiylashtiruv yig`imlaridan tashqari) to`lashdan ozod etilsin; (O`zR Prezidentining 19.04.2013 y. PF-4533-son Farmoni tahriridagi xatboshi)

2013–2017-yillar mobaynida "O`zmeliomashlizing" Davlat lizing kompaniyasining "Meliomashlizingservis" sho`ba korxonasi O`zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro`yxatlar bo`yicha olib kiriladigan tovarlar, melioratsiya texnikasiga, mashina va mexanizmlarga texnik hamda servis xizmati ko`rsatish uchun xarid qilinadigan ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlar uchun boj to`lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi yig`imlaridan tashqari) ozod qilinadi. (O`zR Prezidentining 19.04.2013 y. PF-4533-son Farmoniga muvofiq kiritilgan xatboshi)

8. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O`zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh.M. Mirziyoyev zimmasiga yuklansin.

**O`zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**I. Karimov**

"O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami", 2007-yil, 44-son, 440-modda